



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH
VA BANDLIK VAZIRLIGINING
QARORI

**Tadbirkorlik subyektlari xodimlarining o'rtacha yillik sonini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomga
o'zgartirishlar kiritish haqida**

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Mehnat vazirligining 2017-yil 17-yanvardagi 1-mb, 3-q/q-son qarori (ro'yxat raqami 2858, 2017-yil 17-fevral) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 7-son, 104-modda) bilan tasdiqlangan Tadbirkorlik subyektlari xodimlarining o'rtacha yillik sonini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi hamda O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Ўзбекистон Республикаси
Президенти хузуридаги
Статистика агентлиги
директори**

Тошкент ш.
2023 йил 31 май,
35-мб сон

Vazir

Тошкент ш.
2023 йил 31 май,
19-2023/qq сон



Begalov B. A.



Musayev B. A.

Келишилди:

**Ўзбекистон Савдо-саноат
палатаси Раиси**

Тошкент ш.
2023 йил 16 май,

**Ўзбекистон касаба уюшмалари
Федерацияси раиси**

Тошкент ш.
2023 йил 12 май,

**Ўзбекистон Республикаси
Иқтисодиёт ва молия вазири**

Тошкент ш.
2023 йил 31 май,



Vahabov D. A.



Рафиқов К.М.



SH.D.KUDBIEV

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti-
huzuridagi Statistika agentligining
2023-yil 31-maydagi
35-mb-son hamda O‘zbekiston
Respublikasi Kambag‘allikni
qisqartirish va bandlik vazirligining
2023-yil 31-maydagi
19-2023/qq-son qaroriga
ILOVA

**Tadbirkorlik subyektlari xodimlarining o‘rtacha yillik sonini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomga
kiritilayotgan o‘zgartirishlar**

1. 12-bandda:

birinchi xatboshidagi “ish vaqti muddatiga” degan so‘zlar “ish vaqti davomiyligiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

to‘rtinchi xatboshidagi “ish vaqti muddati” degan so‘zlar “ish vaqti davomiyligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

beshinchi xatboshidagi “ish vaqtining normal muddati” degan so‘zlar “ish vaqtining normal davomiyligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

oltinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ish vaqtining normal davomiyligi O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 182-moddasiga muvofiq belgilanadi.”.

2. Ilovada:

“ish vaqtining muddati” degan so‘zlar “ish vaqtining davomiyligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

“ish vaqtining normal muddati” degan so‘zlar “ish vaqtining normal davomiyligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

“115-moddasiga” degan so‘zlar “182-moddasiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.